

Shohjahon MUXSINOV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti
E-mail: muxsiniv@mail.ru
Tel: +998 97 716 85 05

O'zDJTSU dotsenti, p.f.b.f.d (PhD) Artikov A.A. taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE SURVEY BETWEEN APOSTACHASSIANS ON THE EFFECTIVENESS OF PEDAGOGICAL CONTROL OF THE TECHNICAL AND TACTICAL ACTIVITIES OF YOUNG FUTSAL PLAYERS

Annotation

In the coverage of the article, the data from the questionnaire survey was analyzed in general in order to determine the opinions on the topic of pedagogical control types and its significance of leading specialists who have been active in the sport of mini-football for several years. It is recognized that the process of effective improvement of technical and tactical actions of pedagogical types of control is important in this.

Key words: Questionnaire survey, coaches, control type, pedagogical control type, intermediate control, current control and operational control.

АНАЛИЗ АНКЕТЫ СРЕДИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЮНЫХ ФУТЗАЛИСТОВ

Аннотация

При освещении пословицы были обобщены и проанализированы данные анкетного опроса ведущих специалистов, которые в течение нескольких лет занимались мини-футболом, с целью выявления мнений по теме видов педагогического контроля и его значимости. При этом признается важным процесс эффективного совершенствования технико-тактических действий видов педагогического контроля.

Ключевое слово: Анкета, наставники, тип контроля, тип педагогического контроля, промежуточный контроль, текущий контроль и оперативный контроль.

YOSH FUTZALCHILARNING TEXNIK-TAKTIK FAOLIYATINI PEDAGOGIK NAZORAT QILISH SAMARADORLIGI BO'YICHA MUTAXASSISLAR O'RTASIDAGI SO'ROVNOMA TAHLILI

Annotatsiya

Maqolni yoritishda bir necha yillar davomida mini-futbol sport turi bo'yicha faoliyat olib borgan yetakchi mutaxassislarining pedagogik nazorat turlari va uning ahamiyati mavzusiga oid fikrlarni aniqlash maqsadida anketa so'rovnomasidagi ma'lumotlar umumlashtirilib tahlil qilingan. Bunda pedagogik nazorat turlari texnik-taktik harakatlarini samarali takmillashtirish jarayoni muhim ekanligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: Anketa so'rovnomasi, murabbiylar, nazorat turi, pedagogik nazorat turi, oraliq nazorat, joriy nazorat va tezkor nazorat.

Kirish. O'sib kelayotgan kelajagimiz yoshlarni sog'lig'ini mustahkamlash, ularning jismoniy mashqlar orqali organizm chiniqtirishga, har tomonlama rivojlanishga yordam berishiga, o'quv-mashg'ulotda olib borilgan bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga ishtiyoq uyg'otish va ularda harakat malakalarini shakllantirishda o'quv-mashg'ulotlardan tashqari tadbirlarga yoshlarni jalb qilish uchun turli sport turlarida tashkil etish va o'tkazishning xilma-xil shakllaridan foydalanish lozim. Bunda shug'ullanuvchilarning yoshi, sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. Yoshlar bilan amaliy ish olib borish uchun mashg'ulotlarni nazorat qilib borish lozim. Bunda o'quv-mashg'ulotlarni yil davomida jismoniy, texnik tayyorgarliklarini sport mahoratini oshirishda nazorat qilib borish muhimdir.

Tashkil etilayotgan va o'tkaziladigan barcha sport musobaqalari har qanday sport turida sportchilarning tayyorgarlik darajasini ko'rsatuvchi asosiy jarayon bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon sportchilarni ma'naviy va jismoniy holatlarini maksimal darajada amalga oshirishga, nizom asosida o'tkaziladigan barcha musobaqalarda ishtirok etadigan sportchilar yoki jamoalarning turli xil tayyorgarliklarini namoyish etishga qaratilgan. Barcha sport turlarida o'tkaziladigan chempionatlar, o'toqlik uchrashuvlari, saralash va nazorat uchrashuvlaridagi musobaqa faoliyat deganda "musobaqa faoliyatida sportchilarni musobaqa jarayonida bajariladigan harakatlar yig'indisi" tushuniladi [3].

Barcha jamoaviy sport turlarida ishtirok etadigan sportchilarning musobaqa faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarida organizm harakatlarni bajarish shiddati, bajariladigan ishning atsiklik holatda amalga oshirilishi, raqib tomonidan turli bajariladigan harakatlarga qarshi kurashning o'zgaruvchan sharoitida turli texnik bajara olish orqali amalga oshiriladigan harakat-koordinatsiyasi, sportchilarni tezlik-kuch sifati va boshqa harakat qobiliyatlarini namoyon qilish uchun har tomonlama talabdir [2].

Ko'pgina ilmiy ishlarda keltirilishicha mini-futbol sport turidagi musobaqa faoliyatida sportchilarni tayyorgarlik jihatlari asosan to'p bilan va to'psiz harakat faoliyatlar orqali amalga oshiriladigan harakatlardan iborat. Mana shu shiddatli va mazmunli o'yinlarda texnik-taktik harakatlarni sportchilar tomondan aniq va noaniq bajarish harakatlarini nazorat qilib borish muhimdir [2].

Ishning maqsadi. Anketa so'rovnomasi orqali mini-futbol sport turida amalga oshiriladigan nazorat turlari, ularni foydalanish bo'yicha fikr mulohazalarni tahlil qilishdan iborat.

Ishning vazifasi. Mini-futbol sport turida texnik-taktik harakatlarni nazorat qilish turlari va ularni amalga oshirishdagi fikr mulohazalarni tahlil qilish orqali o'quv-mashg'ulotlarni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish; anketa so'rovnomasi; matematik-statistik.

Tadqiqotni olib borish. Biz tomonimizdan musobaqa va o'quv-mashg'ulotlarda texnik-taktik harakatlarini pedagogik nazorat qilish samaradorligi bo'yicha murabbiy va mutaxassislar fikrlarini aniqlash uchun anketa so'rovnomasi o'tkazildi. Tashkil etilgan so'rovnomada ishtirok etish uchun 50 dan ortiq futbol va mini-futbol bo'yicha murabbiylarni jalb qilindi. Tanlab olingan savollar yosh mini-futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda nazorat turlari, ularning ahamiyati va nima maqsadda foydalanishi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish imkoniyatini berdi. Bu

savollar orqali biz murabbiy va mutaxassislarining nazorat turlarini musobaqa va o'quv-mashg'ulotlarda qay darajada foydalanishlari bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. So'rovnomanini tashkil etishda, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yoritish va ko'lamini ochib berish uchun 10 ta savollar keltirildi.

Natijaning muhokamasi. Sport o'yinlarida qaysi tayyorgarlik turini birinchi navbatda nazorat qilish muhim deb o'ylaysiz degan birinchi savolga so'raluvchilarning 46,5% texnik-taktik tayyorgarlik, 29,8% sportchilarning funksional tayyorgarlik turiga, 16,1% jismoniy tayyorgarlikka va 7,6% nazariy tayyorgarlik turlariga degan fikriga to'ralishmoqda. Bu javoblardan kelib chiqib murabbiylar texnik-taktik tayyorgarlik turi nazoratni boshqa tayyorgarliklarga qaraganda katta hajimda e'tibor berilishini ko'rsatmoqda.

Yosh mini-futbolchilarni nazorat qilishda qaysi yo'nalishdagi tayyorgarlikda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni orqali olib borish kerak deb o'ylaysiz degan savolga murabbiylarning 39,4% funksional holatni baholashda, 18,1% texnik-taktik tayyorgarlikni baholashda, 5,7% nazariy tayyorgarlikni baholashda, 36,8% jismoniy sifatlarni baholashda foydalanishlari kerakligi bo'yicha fikrni ma'qullaganlar.

Bu ikki javoblardan mutaxassis va murabbiylarning javoblaridan pedagogik nazorat qilishning asosiy yo'nalishi texnik-taktik tayyorgarligini keng yoritish maqsadida foydalanishlarini bildirsa, innovatsion texnologiyalar esa asosiy funksional imkoniyatlarni va jismoniy sifatlarni yoritib berish maqsadida o'tkazilishi bo'yicha fikr uyg'onadi. Bu ma'lumotlardan pedagogik nazorat turida innovatsion texnologiyalar kam foydalanishidan dalolat beradi.

Musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarini qaysi nazorat turi orqali baholab borish muhim deb hisoblaysiz degan savolga xam qiziqarli javob oldik. Ya'ni, murabbiylar va mutaxassislarining 25,4% tezkor (operativ) nazorat turiga, 19,8% joriy nazorat turiga, 24,6% oraliq nazorat turiga va 30,2% yakuniy nazorat turiga degan fikrga kelishgan. Biz olgan javoblardan musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonlarida tezkor, joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha ma'lumotlarga so'raluvchilar to'liq ega emasligi va ular faqtgina akademiya, internat va sport maktablarida keltirilgan nazorat qilish bo'yicha keltirilgan soatlar taqsimotidan chiqmagan holda harakatlanishlari ma'lum bo'ldi.

Sportchilarning samarali individual texnik-taktik harakatlari o'yin jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi deb bilasizmi degan savolga murabbiy va mutaxassislar fikrlari ajralib qoldi. Bunda 35,7% mutaxassislar individual texnik-taktik harakatlari o'yin jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi deb, 15,7% yo'q, 29,7% qisman va 19,9% ta'sir qilmaydi deb bilishadi. Ammo, sportchilarning pedagogik nazorat qilishda qaysi jarayoniga ko'proq urg'u berish kerak deb bilasiz degan beshinchi savolga 53,7% so'raluvchilar musobaqa jarayoniga degan fikrga kelishgan. 23,9% so'raluvchi esa, o'quv-mashg'ulot jarayoniga, 10,7% o'quv-mashg'ulot jarayonidan keyingi jarayonga va 12,4% musobaqadan oldingi jarayonga degan qarorga kelishgan.

Bu ma'lumotlardan pedagogik nazorat qilish asosan murabbiylar musobaqa jarayonida foydalanishlaridan dalolat beradi. O'quv-mashg'ulot jarayoni esa, musobaqa jarayonidan keyin nazoratga olinadigan jarayoni ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari nazorat ko'rsatkichlaridan qaysi biri murabbiy va mutaxassislar uchun muhim hisoblanadi degan savolga 60% pedagogik nazorat turi, 19,4% mediko-biologik nazorat turi, 11,7% ijtimoiy-psixologiya nazorat turi, 9,5% biomexanik nazorat turiga e'tibor berishlari aniqlandi. Bu savoldan ham olingan javoblardan pedagogik nazorat turi murabbiy va mutaxassislar uchun muhim ekanligi bildiradi.

Pedagogik nazorat turi o'ziga qanday faoliyatlarni qamrab oladi degan savolga ham qiziqarli ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. Murabbiy va mutaxassislarining 45,6% pedagogik nazorat bu texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasi, musobaqalarda qatnashish xususiyatlari, sport natijalarining dinamikasi, o'quv jarayonining tuzilishi va mazmuni baholanadi degan fikrga, 25,4% pedagogik nazorat bu sog'liqni saqlash holati, funksional tizimlar, alohida organlar va mexanizmlarning imkoniyatlarini baholaydi degan fikrga, 14,4% pedagogik nazorat bu sportchining shaxsiy xususiyatlarini, uning psixologik holati va tayyorgarligini, umumiy mikroiklimni va mashg'ulot va soyaning ishlash sharoitlarini o'rganish bilan bog'liq va 14,6% pedagogik nazorat bu biomexanik harakatlarini tahlil qilish degan, bunda futbolchilar tomonidan bajariladigan turli harakat faoliyatlarini o'rganish degani javobga kelishgan. Bu ma'lumotlardan murabbiy va mutaxassislar pedagogik nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlari bir xil emasligini bildiradi.

Yosh mini-futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda oraliq nazorat turini amalga oshirish qancha vaqtini o'z ichiga oladi degan savolga ham fikrlar bir to'xtamga kelmagan. Ular 25,4% uzoq vaqt oralig'idagi nazorat turiga, 27,9% 5-6 ta mashg'ulotdan keyin nazorat qilish turiga, 21,7% har bir mashg'ulotdan keyin nazorat turiga va 25% bir necha o'quv-mashg'ulotdan keyin amalga oshiriladigan nazorat turiga taalluqligi aniqlandi.

Yosh mini-futbolchilarni texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda qaysi nazorat turi muhim deb o'ylaysiz degan fikr ham mutaxassis va murabbiylar bir fikrni olib imkoniyat tug'ilmadi. Bu esa murabbiylar o'quv-mashg'ulotlarda turli nazorat turlaridan foydalanishlarini bildiradi (tezkor nazorat turi 28,7%, joriy nazorat turi 19,7%, oraliq nazorat turi 23,4% va barchasi 28,2%).

Yosh mini-futbolchilarning pedagogik nazorat turi orqali nima ishlar amalga oshiriladi deganda 35,8 musobaqa faoliyatini va o'quv-mashg'ulot test me'yorlarni nazorat qilish, 24,7% biomexanik nazoratlar, 19,7% bioximik o'zgarishlarini aniqlash va 19,8% psixologik holatini aniqlash qaratishlarini bildiradi.

1-jadval

Yoshli futbolchilarning texnik-taktik faoliyatini pedagogik nazorat qilish samaradorligi bo'yicha so'rovnoma natijalari

№	Savol va javoblar	%
Sport o'yinlarida qaysi tayyorgarlik turini birinchi navbatda nazorat qilish muhim deb o'ylaysiz?		
A)	Funksional tayyorgarlik turi	29,8
B)	Texnik-taktik tayyorgarlik turi	46,5
V)	Nazariy tayyorgarlik turi	7,6
G)	Jismoniy tayyorgarlik turi	16,1
2. Yosh mini-futbolchilarni nazorat qilishda qaysi yo'nalishdagi tayyorgarlikda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni orqali olib borish kerak deb o'ylaysiz?		
A)	Funksional holatni baholashda	39,4
B)	Texnik-taktik tayyorgarlikni baholashda	18,1
V)	Nazariy tayyorgarlikni baholashda	5,7
G)	Jismoniy sifatlarni baholashda	36,8
3. Musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarini qaysi nazorat turi orqali baholab borish muhim deb		

hisoblaysiz?		
A)	Tezkor (operativ) nazorat turi	25,4
B)	Joriy nazorat turi	19,8
V)	Oraliq nazorat turi	24,6
G)	Yakuniy nazorat turi	30,2
4. Sportchilarning individual texnik-taktik harakatlari o'yin nazorat qilish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi deb bilasizmi?		
A)	Ha	35,7
B)	Yo'q	15,7
V)	Qisman	29,7
G)	Ta'sir qilmaydi	19,9
5. Sportchilarning pedagogik nazorat qilishda qaysi jarayoniga ko'proq urg'u berish kerak deb bilasiz?		
A)	Musobaqa jarayoniga	53,7
B)	O'quv-mashg'ulot jarayoniga	23,9
V)	O'quv-mashg'ulotdan keyingi jarayonga	10,7
G)	Musobaqadan oldingi jarayonga	12,4
6. Nazorat ko'rsatkichlaridan qaysi biri murabbiy va mutaxassislar uchun muhim hisoblanadi?		
A)	Pedagogik nazorat turi	60,4
B)	Mediko-biologik nazorat turi	19,4
V)	Ijtimoiy-psixologiya nazorat turi	11,7
G)	Biomexanik nazorat turi	9,5
7. Pedagogik nazorat turi o'ziga qanday faoliyatlarni qamrab oladi?		
A)	Pedagogik nazorat bu texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasi, musobaqalarda qatnashish xususiyatlari, sport natijalarining dinamikasi, o'quv jarayonining tuzilishi va mazmuni baholanadi.	45,6
B)	Pedagogik nazorat bu sog'liqni saqlash holati, funksional tizimlar, alohida organlar va mexanizmlarning imkoniyatlarini baholaydi.	25,4
V)	Pedagogik nazorat bu sportchining shaxsiy xususiyatlarini, uning psixologik holati va tayyorgarligini, umumiy mikroiklimni va mashg'ulot va soyaning ishlash sharoitlarini o'rganish bilan bog'liq.	14,4
G)	Pedagogik nazorat bu biomexanik harakatlarini tahlil qilish degan, bunda futbolchilar tomonidan bajariladigan turli harakat faoliyatlarini o'rganish degani.	14,6
8. Yosh mini-futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda oraliq nazorat turini amalga oshirish qancha vaqtni o'z ichiga oladi?		
A)	Uzoq vaqt oralig'idagi nazorat turi	25,4
B)	5-6 ta mashg'ulotdan keyin nazorat qilish turi	27,9
V)	Har bir mashg'ulotdan keyin nazorat turi	21,7
G)	Bir necha o'quv-mashg'ulotdan keyin amalga oshiriladigan nazorat turi	25
9. Yosh mini-futbolchilarni texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda qaysi nazorat turi muhim deb o'ylaysiz?		
A)	Tezkor nazorat turi	28,7
B)	Joriy nazorat turi	19,7
V)	Oraliq nazorat turi	23,4
G)	Barchasi	28,2
10. Yosh mini-futbolchilarning pedagogik nazorat turi orqali qanday ishlar amalga oshiriladi?		
A)	Musobaqa faoliyatini va o'quv-mashg'ulot test me'yorlarni nazorat qilish	35,8
B)	Biomexanik nazoratlar	24,7
V)	Bioximik o'zgarishlarini aniqlash	19,7
G)	Psixologik holatini aniqlash	19,8

Izoh: sariq – yuqori foiz; yashil – past foiz.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash kerakki, so'rovnoma ishtirok etgan mutaxassis va murabbiylardan nazorat turlari bo'yicha mazkur yo'nalishdagi fikrlari turli ekanligini ko'rsatdi. Bu esa, murabbiylarni barcha ham musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat turlariga yuqori darajada e'tibor berilmasligidan dalolatdir.

Anketa so'rovnomasida ishtirok etgan murabbiylardan nazorat turlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni aniqlash imkonini berdi:

Murabbiy va mutaxassislardan olingan so'rovnoma natijalaridan musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat turi asosan texnik-taktik tayyorgarlikni baholashda kengroq foydalanilishlarini aniqlandi;

Olingan ma'lumotlardan innovatsion texnologiyalar orqali musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida sportchilarning funksional imkoniyatlarni aniqlash va jismoniy sifatlarni baholashda foydalanishlarini bildiradi. Texnik-taktik tayyorgarligini baholashda esa, murabbiylarda yetarlicha ma'lumotlarga ega emasligidan dalolat beradi. Bu anketa so'rovnomasidan texnik-taktik tayyorgarlikni pedagogik nazorat qilishda innovatsion texnologiyalar yetarlicha ma'lumotlarga ega emasligini bildiradi;

Murabbiy va mutaxassislar sportchilarni tayyorgarlik darajasini baholashda musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonida olib boriladigan joriy, oraliq va tezkor (operativ) nazorat turlari bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega emasligini bildiradi;

Mutaxassis va murabbiylar musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat qilish jarayoni, o'quv-mashg'ulot jarayonidan olib boriladigan pedagogik nazorat qilish holatlariga qaraganda keng foydalanishlari, bundan tashqari pedagogik nazorat qilish ko'rsatkichi, mediko-biologik, ijtimoiy va biomexanik nazorat qilish ko'rsatkichlaridan muhim hisoblanishi aniqlandi;

Anketa so'rovnomasini umumlashtirish asosida olingan ma'lumotlardan, murabbiylar pedagogik nazorat turi bo'yicha fikrlari turlicha bo'lganligidan, ularning bu yo'nalish bo'yicha ma'lumotlar bazasi yuqori darajada emasligidan dalolat beradi. Ya'ni, musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonini texnik-taktik tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish samaradorligini oshirishda yangi metodika ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Olingan natijalardan pedagogik nazorat turlarini to'g'ri amalga oshirish orqali sportchilar texnik-taktik harakatlar takomillashtirishda samarali ta'sir ko'rsatishi bo'yicha fikrlar aniqlandi. Bundan tashqari murabbiylar musobaqa va o'quv-

mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat turlaridan oraliq, joriy va tezkor nazorat turlari joriy etish samarali usul hisoblanishini ta'kidlashgan.

ADABIYOTLAR

1. Абдул Сахиб Аль Джамшир, Голомазов С. Срочный эффект специфических и неспецифических нагрузок разной функциональной направленности на быстроту перемещений футболистов с мячом // Теория и практика футбола. 2004. № 4. С. 17-21.
2. Андреев С. А. [и др.] Мини-футбол (футзал): примерная программа для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. М., 2010.
3. Голомазов С. В., Чирва Б. Г. Футбол: Теорет. основы и методика контроля технического мастерства. М., 2001.
4. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры: учеб. для ин-тов физ. культуры. М., 1991.
5. Монаков Г. В. Подготовка футболистов: учеб. пособие. Ч. 1: Основы техн. обучения футболистов. Ч. 2: Методика и планирование. Псков, 2003.
6. Петько С. Н., Лысенко И. Г., Кашкаров В. А. Структура соревновательной деятельности как основа построения тренировки в мини-футболе // Теория и практика физической культуры. 2008. № 8. С. 59.
7. Проминский В. В., Денисов А. В. Особенности соревновательной деятельности в игре «футзал» // Физическая культура, спорт и здоровье населения Дальнего Востока: мат-лы регион. науч.-практ. конф. молодых ученых. Хабаровск, 1997. С. 36-37.
8. Тюленьков С. Ю., Губа В. П. [и др.] Теоретико-методические аспекты управления подготовкой футболистов: учеб. пособие. Смоленск, 1997.